INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOGNITIV METAFORALAR ORASIDAGI FARQLAR

Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingli tiliz nazariy aspektlari kafedrasi dotsent,
Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o‘g‘li
mattiyev1@gmail.com
+998938711311

Annotatsiya:Ushbu tadqiqot kognitiv tilshunoslikning madaniy model nazariyasi doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik tizimlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlanadi. Maqolada har ikki tilning somatik leksikasi, tabiat va texnologiya obrazlari, individualizm va kollektivizm hamda ijtimoiy iyerarxiya va qadriyatlar tizimining lingvokognitiv xususiyatlari yoritilgan. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi «ko‘ngil» madaniy konseptining emotsional va kognitiv yaxlitligi ingliz tilidagi *heart* va *mind* dixotomiyasi bilan qiyoslanib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy va nazariy asoslangan.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, madaniy model, metaforik tizim, somatizm, «ko‘ngil» konsepti, lingvokognitiv tahlil, kollektivizm, lingvistik nisbiylik.

Abstract: This study presents a comparative analysis of metaphorical systems in English and Uzbek within the framework of the cultural model theory in cognitive linguistics. The paper explores the linguo-cognitive characteristics of somatic lexicon, natural and technological metaphors, individualistic versus collectivistic cultural patterns, and social hierarchy. Particular attention is given to the Uzbek cultural concept of *ko‘ngil* as a unified emotional and cognitive synthesis, contrasting it with the English *heart* and *mind* dichotomy to demonstrate the profound interaction between language, culture, and cognition.

Keywords: cognitive linguistics, cultural model, metaphorical system, somatism, concept of *ko‘ngil*, linguo-cognitive analysis, collectivism, linguistic relativity.

Kognitiv tilshunoslikda madaniy model nazariyasi har bir tilning metaforik tizimi o’sha madaniyatning qadriyatlari tuzilishi, ijtimoiy tashkiloti va tarixiy tajribasini bevosita aks ettiradi. Ingliz va o’zbek tillari o’rtasidagi metaforik farqlar ham aynan shu qonuniyatning yorqin namunasi sifatida namoyon bo’ladi.

Ingliz va o’zbek tillari o’rtasidagi eng muhim farqlardan biri somatik leksikaning, ya’ni ta’na a’zolari nomlarining metaforik tizimda egallagan o’rni bilan bog’liq. O’zbek tilida his-tuyg’ular, kognitiv jarayonlar va ma’naviy hodisalar somatic leksika vositasida konseptuallashtiriladi va bu holat ingliz tiliga nisbatan ancha yuqori darajada kuzatiladi.

Ko’ngil leksemasi o’zbek tilidagi emotsional va kognitiv metaforalarning markaziy elementi hisoblanadi. *Ko’ngil qo’ymoq (emotsional bog’lanish), ko’ngli buzilmoq (ruhiy iztirobga tushmoq), ko’ngli toshmoq (his-tuyg’ular to’lib-toshmoq), ko’nglini ko’tarmoq (ruhiy holatni yaxshilamoq), ko’ngli yo’q (ishtiyoqsizlik)* kabi iboralar bir leksema atrofida shakllantiruvchi kengaytirilgan metaforik tizimni tashkil etadi. Mazkur holat F.Sharifian [1] tomonidan madaniy konsept atamasi bilan tavsiflanadi: *ko’ngil* so’zi o’zbek madaniy idrokida yurak, aql va ruhning qorishiq ifodasini anglatadi hamda ingliz tilida birorta so’z bilan to’liq ekvivalentlikka ega emas.

Ingliz tilida *heart* so’zi emotsional metaforalarda muhim o’rin egallaydi (*heartbroken, heart of gold, from the bottom of my heart*), biroq kognitiv jarayonlar *mind* leksemasi orqali ifodalanadi (*make up your mind, bear in mind, come in mind*). Bu ikkilanish emotsiyalar uchun *heart*, idrok uchun *mind* o’zbek tilidagi *ko’ngil* koneptining yaxlitligidan tubdan farq qiladi. D.Dobrovolskiy va E.Piirainen ta’kidlaganidek, somatizmlarning bunday taqsimlanishi tillarning kognitiv antropologiyasidagi chuqur farqlarni aks ettiradi[2].

Ikkinchi muhim farq tabiiy muhit va dehqonchilik bilan bog’liq metaforik tizimning o’zbek tilidagi nisbatan yuqori faolligida namoyon bo’ladi. O’zbek tilida g’oya, bilim, iste’dod va insoniy failatlar ko’pincha o’simlik, tuproq va ekin-tikin obrazlari orqali konseptuallashtiriladi: *g’oyani parvarishlash, bilimga sug’ormoq, iste’don niholini ehtiyot qilmoq, ildiz otmoq, meva bermoq.* Bu metaforalar o’zbek xalqining asrlar davomida dehqonchilik va bog’dorchilikka asoslangan turmush tarsi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, *madaniy spesifikatsiya* tamoyilini yaqqol namoyish etadi.

Ingliz tili ham tabiat metaforalaridan foydalanadi (*planting seeds of doubt, bearing fruit, growing an idea*), biroq bu metaforalar o’zbek tilidagi kabi tizimli va marakaziy xarakkter kasb etmaydi. Buning o’rniga ingliz tilida mexanik, texnologik

[1] Sharifian F. Cultural Conceptualisations and Language: Theoretical Framework and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2011. – 244 p.
[2] Dobrovol'skij D., Piirainen E. Idioms: Motivation and Etymology // Yearbook of Phraseology. – Berlin: De Gruyter, 2010. – Vol. 1. – P. 73–96.

va tijorat metaforalarida nisbatan boy: *processing information, market of ideas, networking, bandwidth, input/output. Aqliy mehnat –industrial ishlab chiqarish* metaforasi ingliz tilida tizimli tus olgan bo'lsa, o'zbek tilida bu metafora unchalik markaziy o'rinni egallamaydi. Mazkur farqning kognitiv asosi J.Gumperz va S. Levinson tomonidan *lingvistik nisbiylik* nazariyasi doirasida tushuntiriladi, ya'ni til nafaqat madaniyatni, balki o'z navbatida o'sha madaniyat vakillari qanday fikrlashni ham qisman shakllantiradi[3].

Uchinchi farq kognitiv tilshunoslikdagi madaniy model nazariyasi bilan bevosita bog'liq. Individualistik va kollektivistik madaniyatlar dunyo hodisalarini turlicha konseptuallashtirishga moyil.

Ingliz tilidagi ko'plab metaforalar individual maqsad, shaxsiy muvaffaqiyat va mustaqil sayohat g'oyasini markazga qo'yadi: *self-made man, carving out your own path, pulling yourself up by your bootstraps, finding your own voice.* Bu metaforik tizimda muvaffaqiyat shaxsning o'z kuch-g'ayrati mahsuli sifatida tasavvur qilinadi. Ijtimoiy muhit esa ko'pincha fon yoki to'siq sifatida gavdalanadi.

O'zbek tilidaga mos metaforalar esa ko'pincha jamoa, oila va mahalla kontekstida namoyon bo'ladi: *bor yoqadan bosh chiqarmoq, jamoa bo'lib ko'tarmoq, birlashgan o'zar.* Bu metaforik tizimda individual muvaffaqiyat kollektik harakat va jamoaviy birdamlik tufayli mumkin bo'lgan hodisa sifatida anglashiladi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek tilidagi metaforalar gorizontal kollektivizm moadaniy modeliga mos keladi.

To'rtinchi faqr ikki til va madaniyatning ijtimoiy tuzilishidagi farqlarni bevosita aks ettiradi. O'zbek tilidagi hurmat-izzat, katta-kichiklik va mehmondo'stlik tushunchalari metaforik tizimni chuqur shakllantiradi: *eshigini ochmoq (qabul qilmoq, yordamga tayyor bo'lmoq), dasturxon yozmoq (mehmon kutish marosimini o'tkazmoq), bosh egmoq (hurmat bildirmoq).* Bu metaforalar o'zbek madaniyatidagi iyerarxik ijtimoiy munosabatlar tizimini va mehmondo'stlikning alohida qadriyat sifatida o'rnini aks ettiradi.

Xulosa

Ushbu qiyosiy-kognitiv tahlil natijasida quyidagi **muhim ilmiy xulosalarga** kelish mumkin:

1. **Somatik konseptualizatsiyaning o'zgachaligi:** O'zbek tilida emotsional va kognitiv jarayonlar «ko'ngil» leksemasi atrofida yaxlit holatda birikadi (yurak, aql

[3] Gumperz J.J., Levinson S.C. (eds.) Rethinking Linguistic Relativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 488 p.

va ruhning sintezi). Ingliz tilida esa bu vazifa aniq chegaralangan: emotsiya uchun *heart*, idrok uchun *mind* qo‘llaniladi.

2. **Tajriba va atrof-muhit aks etishi:** O‘zbek tilidagi metaforalarda asriy dehqonchilik va bog‘dorchilik tajribasi (sug‘ormoq, ildiz otmoq, meva bermoq) markaziy o‘rin tutsa, ingliz tilida sanoatlashgan va raqamli jamiyat ta’sirida mexanik hamda tijoriy metaforalar (*processing information, market of ideas, bandwidth*) dominantlik qiladi.

3. **Ijtimoiy-madaniy orientatsiya:** Ingliz tilidagi metaforik iboralar shaxsiy muvaffaqiyat va individualizmga (*self-made man, carving out your own path*) tayanadi; o‘zbek tilida esa jamoaviy birdamlik hamda gorizontal kollektivizm (*bir yoqadan bosh chiqarmoq, birlashgan o‘zar*) ustuvordir.

4. **Iyerarxiya va milliy qadriyatlar:** O‘zbek tilidagi somatik va harakat metaforalari (*eshigini ochmoq, dasturxon yozmoq, bosh egmoq*) milliy muloqot etiketi, mehmondo‘stlik hamda kattalarga hurmat tamoyillarini kognitiv darajada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, har ikki tilning metaforik xaritasi o‘sha xalqning milliy-madaniy mentaliteti, ijtimoiy tuzilishi va tarixiy-maishiy tajribasining bevosita kognitiv in’ikosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Dobrovol’skij, D., & Piirainen, E.** (2005). *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. Emerald Group Publishing.
2. **Gumperz, J. J., & Levinson, S. C.** (Eds.). (1996). *Rethinking Linguistic Relativity*. Cambridge University Press.
3. **Lakoff, G., & Johnson, M.** (2003). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. **Sharifian, F.** (2011). *Cultural Conceptualisations and Language: Cultural Linguistics and Intercultural Communication*. John Benjamins Publishing.
5. **Sharifian, F.** (Ed.). (2017). *Advances in Cultural Linguistics*. Springer.
6. **Kövecses, Z.** (2005). *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge University Press.
7. **Whorf, B. L.** (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf* (Ed. J. B. Carroll). MIT Press.
8. **Маслова, В. А.** (2001). *Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений*. Академия.

9. **Телия, В. Н.** (1996). *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Школа «Языки русской культуры».
10. **Tursunov, U., Muxtorov, J., & Rahmatullayev, Sh.** (1992). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. O‘qituvchi.
11. **Rahmatullayev, Sh.** (2006). *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. O‘qituvchi.
12. **Xudoyberganova, D.** (2015). *O‘zbek tilidagi matnlarning antropotsentrik talqini*. Fan.